

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut, o'zbek tili kafedrasini o'qituvchisi
+99897-354-16-00

MATN YARATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rezyume: Ushbu maqolada matn yaratishda interfaol metodlardan samarali foydalanish va ularning ahamiyati haqida atroflicha to'xtalangan. Bundan tashqari mustaqil ishlarni yozish tartib-qoidalari va uning matn yaratishdagi roli to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Matn yaratish, interfaol metodlar, mustaqil ish, metodika, metodlar

Резюме: В этой статье рассматривается эффективное использование интерактивных методов и их значение при создании текста. Кроме того, обсуждались процедуры написания самостоятельной работы и ее роль в создании текста.

Ключевые слова: Создание текста, интерактивные методы, самостоятельная работа, методика, методы.

Summary: This article discusses the effective use of interactive methods and their importance in text creation. In addition, the procedures for writing independent work and its role in creating a text were discussed.

Key words: Text creation, interactive methods, independent work, methodology, methods.

Ona tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasiga ortilgan vazifalar nihoyatda ko'p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir. Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat, muomalani ta'minlashi bilan bog'liq. Bunda axborotlarni boshqalarga yetkazish, o'zaro fikr almashishi amalga oshadi. Uning vositalari esa turli ko'rinishlarga ega. Xususan, og'zaki, yozma, shuningdek, tilshunoslikda paralingvistika deb nom olgan vositalar bo'lishi mumkin.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining boshqa bir qator nazariy hamda amaliy predmetlar bilan aloqadorligidan kelib chiqadigan atama va tushunchalar ham mavjud. Bunda ayniqsa, didaktika, tarbiya nazariyasi, pedagogik psixologiya fanlaridan o'tgan atama va tushunchalar, bevosita fanning predmeti va unga yondosh sohalardan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan o'tgan atama va tushunchalar ham asosiy mavqega ega.

Umumiy ta'lim predmetlaridan biri sanalgan ona tili o'quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni til hodisalarni kuzatish, tahlil qilish va qayta qo'shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarini o'stiradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili darslarining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Tajribali o'qituvchilar darslarni tashkil qilishda o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga tayanadilar. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, aksariyat o'qituvchilar mustaqil ishlarning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli ahamiyat bermay, uni nafasni rostdlab olish uchungina o'tkazadilar.

Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonning turli bosqichlariga, o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ona tilidan o'rganiladigan har bir mavzu xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi, Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi, o'quvchilarni tilni o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim.

2. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o'quv materilini faol idrok etishini ta'minlashi zarur.

Ona tilidan tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatidan uch guruhga bo'linadi: tayyorlovchi, yarim mustaqil yoki oraliq, natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

Pedagogika-psoxologiyadan ma'lumki, dastlab o'quvchilar vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo'li bilangina bajara oladi. Tajribali o'qituvchilar dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi; avvalo o'qituvchi o'quv qurollariga muomala qilish, o'quv qurollaridan foydalanish, o'qish va yozish paytida partada o'tirish qoidalarini amaliy ravishda ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchga ergashib, uning qilgan harakatlarini takrorlaydi. Bu ishlar murakkablashtirib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tovushni bo'g'inga, bo'g'inni so'zga birlashtiradilar. Gapni so'zga, so'zni bo'g'inga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar. O'quvchilarga tahlil qilishni o'rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O'quvchi rasmni o'sa turib, "rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o'rik kabi mevalar ifodalangan" deb, o'quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin, nordon mevalarning nomini bildiradigan so'zlarni guruhlariga ajrating. O'ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo'ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar chog'ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun "olma" so'zi ajratiladi. Shu so'z bo'g'inlarga ajratiladi. "Olma so'zining ikkinchi bo'g'inidagi "m", "a" tovushlarining artikulyatsiyasini kuzatish topshiriladi (o'quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o'rtog'ining og'ziga qaraydi)". Suhbat paytida o'quvchilar "m" tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, "a" tovushini aytganda og'izning ochilishini o'rganib oladilar. Shunga o'xshash ishlarni bajarish natijasida o'quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o'quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

Tayyorlovchi mustaqil ishlar yuqori sinflarda o'quvchilarni yangi o'quv materialini ongli o'zlashtirishga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan, 6-sinfda sifat haqida ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Bolalar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, ot bilan bog'lanib kelgan sifatlarni (tip-tiniq, muattar, serhosil, ko'm-ko'k), ularning so'roqlarini aniqlaydilar, sifatlarni o'zlari bog'langan otlar bilan ko'chirib yozadilar (tip-tiniq jilg'a, muattar hid, serhosil jiyda, ko'm-ko'k daraxt). Bu ish o'quvchilarni sifat mavzusini ongli o'zlashtirishga tayyorlaydi. Mustaqil ishlarga tayyorlashning bu kabi usullarini har bir mavzu va bo'limning murakkabligidan kelib chiqib topshiriq berish mumkin.

Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik, bosma asosli tarqatma materiallar, ko'rgazma materiallardan foydalangan holda bajariladi. Misollar: o'qituvchi doskaga "paxta" so'zini yozib, asosdosh so'zlarni yozib, asosdosh so'zlarni topishni buyuradi. O'quvchilar "paxta", "paxtazor", "paxtachilik", "paxtakor", "paxtali" kabi so'zlarni lug'atdan topib yozadi. Bu ishda yetaklovchilik vazifasini paxta so'zi o'ynaydi.

Ta'lim ilgari ilgagan sari o'quvchilar yanada murakkabroq vazifalarni bajara oladilar. Shuni hisobga olib, grammatikadan o'rganiladigan bilimlarga bog'langan holda ijodiy diktant, ish qog'ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlarini mustaqil ish sifatida yozishlari mumkin. Bu ishlar hajmining kattaligi, bajarish uchun ko'p vaqtni talab qilishi bilan mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi. Bunday mustaqil ishlarning oldingi turlaridan farqlash uchun "natijasi matng ateng mustaqil ishlar" atamasini ishlatiladi. Shunday qilib, ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlar tizimini, sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko'ra aniqlanadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, til sathlarini o'zaro bog'liqlikda, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida o'rganish, o'quvchida mantiqiy fikrlash va birlamchi uslubiy savodxonlikni ta'minlash bilan uyg'unlikda olib boriladi.

Matn yaratishga tayyorlash ishlarining asosiy maqsadi o'quvchida imloviy-uslubiy savodxonlikni ta'minlash, unda muayyan darajada shakllangan nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish, mustaqil fikr mahsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga yo'naltirishdan iborat. Shuning uchun o'qituvchi tayyorlov jarayonida bolani matn va uning qurilishi, grammatik xususiyatlari bilan birma-bir tanishtiradi. Shu maqsadda berilgan matnlar ustida ishlanadi, matnning xatboshi, kirish va xulosa qismlari ajratiladi, matndagi imloviy-uslubiy nuqsonlar topilib, tahlil va tahrir qilinadi.

Matn ustida ishlash jarayonida esa zaruriy til vositalari faollashtirilib, so'zlar, so'z birikmalari, gaplar leksik-semantik guruhlariga ajratilib, lug'at daftarchasiga yoziladi. Ijodiy fikrlash va ilmiy muloqot jarayonida, ijobiy yoki tanqidiy nuqtai nazarni ifodalashda, dialogik matn tarkibida qo'llaniladigan kirish so'z va so'z birikmalarining, bog'lamalarning ishlatilishi o'rganiladi.

G'arb davlatlar ta'lim tizimida pedagogik texnologiya markazlari ko'pdan buyon ilmiy-amaliy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular ta'lim tizimida axborot texnologiyasi va boshqa didaktik vositalardan samarali foydalanishning ilg'or

usul va vositalarini ishlab chiqmoqdalar. Ta'limda "portlash effekti" beradigan, o'quvchini mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltiradigan zamonaviy "Darsmunazora", "Dars-sud", "Dars-nuqtai nazar", "Dars-muloqot", "Dars-axborot", "Aqliy hujum", "Debat dars", "Tanqidiy fikrlash", "Trening", "Auksion", "Lingvistik kashfiyot" darslari kabi ilg'or texnologik metodlarni to'plash va ommalashtirishga, mazkur pedagogik texnologiyalarni o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi orqali bevosita dars jarayoniga olib kirilishiga, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini interfaol metodlar (tezkor, teskari aloqa) asosida boshqarishga astoydil harakat qilinmoqda.

Mustaqil fikrlash darajasini o'stirishga oid usullar ishlab chiqilgach, shaxs (o'quvchi)ning mustaqil fikrlash, fikrni ifodalash va himoyalash huquqlari tan olindi, o'quvchi tanqidiy fikrlash ko'nikmasini egallashga, nutqiy mahoratini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim uchun Davlat ta'lim standartlari hamda Evropa davlatlaridan kirib kelgan xususiy dasturlar ("SOROS") seminar-treninglar: "Parlament debatlari", "Psixologik testlar: "Shahar qishloqdan afzal", "Qizlar yigitlardan mukammalroq", "Oyna", "Aniq savollar va qisqa javoblar" va h.k., mustaqil respublikamizda ishbilarmon va tadbirkor kadrlar tayyorlash ishining keng ko'lamda rivojlanishi va taraqqiyot sari yuz tutishga olib keldi.

Yuqorida eslatib o'tilgan interfaol metodlarga asoslangan seminar-treninglar DTS talablarida ko'rsatilgan kommunikativ savodxonlik darajasiga ega bo'lgan mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi "ijodiy tafakkur sohibi"ni tarbiyalab yetishtirishning modernizatsiyalashgan usullariga misol bo'la oladi.

Yuqori tavsiflangan seminar-treninglarning eng ko'p tarqalgan turi "Parlament debatlari" insondagi tug'ma qobiliyat va qiziqishlarga tayanib ish ko'radi.

Debat tarixi: Debat tushunchasi qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. U argumentlarga asoslangan bahs ma'nosida ishlatiladi.

"Parlament debatlari"(PD)da uchta prinsipga asoslanadi:

1. Nutqiy vaziyatga qarab, tez, to'g'ri va ishonarli so'zlash;
2. Ozgalarni o'z nuqtai nazarining to'g'riligiga ishontirish;
3. Ilmiy-muloqot me'yorlariga amal qilish, o'zida nutqiy madaniyat kurtaklarini shakllantirish;

PDlarning rivojlantiruvchi xususiyatlari:

1. Argumentlashtirilgan tanqidiy fikrlash va uni qisqa ifodalanishi;
2. Notiqlik san'atini;
3. Ilmiy tanqidiy malakalarni;
4. Tashkiliy malakalarni;

5. Anglab tinglash va yozma qayd qilish malakasini shakllantirish bo'lsa, PDning ijtimoiyligi- nafaqat muammoni ikki tomonlama ko'rib chiqish, balki uni yechish yo'llarini topish, eng qisqa, eng foydali variantini tanlash va tavsiya qilishdir.

Shunday yo'nalishlar va ko'rsatmalar orqali shaxs (o'quvchi) ni zamonaviy muloqot matnlarini yaratishga yo'naltirish, interfaol muloqot (masofadan o'qitish, o'qish, INTERNET orqali mintaqalararo muloqotga kirishish, elektron pochta xizmatidan foydalanish, smslar yozish)ga o'rgatish, unda kompyuter bilan muloqot chog'ida favqulodda matn yaratish malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

PD seminar-treninglarida qatnashish, undagi ta'limiy o'yin talablarini bajarish, o'quvchidagi og'zaki nutq malakalarini shakllantirishga (mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni izchil va bosqichli ifodalash, o'z yo'nalishining (keys) argument va dalillar yordamida to'g'riligi, dolzarbligi, muhimligini isbotlash, aniq va ishonarli yechim va xulosalar berish) demak, mustaqil matn yaratishga tayyorlanishga xizmat qiladi. PD va shu kabi boshqa debatlar, seminar—treninglar o'tkazish orqali o'quvchida ijobiy o'quv motivlari, mustaqil faoliyatga ehtiyoj, o'zligini namoyish qilishga istak uyg'onadi. PD da aqliy mushohada (fikrlash) qoidalari quyidagicha:

1. Barcha g'oya va qarashlarni yozing.

2. G'oyalarni tanqid qilmasdan oling, chunki bitta yaxshi g'oya ishlab chiqarish uchun bir nechta o'rtacha g'oyalarni o'rganib chiqish kerak.

3. Hamma g'oyalar aytilgach, yaxshisini tanlang.

4. Ushbu g'oyalardan aniq va ishonarli tuzilgan argumentlarni hosil qilish mumkin.

PD ga faqatgina hammaga ma'lum bo'lgan faktlar va bilimlar ishlatiladi.

Nutqda gumon olmoshlari, mavhum tushunchalarning ishlatilishi ishonchsizlikni ko'rsatadi. Shuning uchun "allaqayerda", "kimdir, bo'lishi mumkin", "kim bilsin", "iloji bo'lsa" so'zlarini o'z nutqingizda qo'llamang.

-to'liq ishonch bilan gapiring;

-nutq aniq, ixcham mantiqan bog'langan bo'lishi kerak;

-asabiylashish, jahlni bosmaslik sizga zarar keltiradi;

-o'z nutqingizda o'rinli hazillarni ishlatib;

-tez gapirmang, shoshilmang;

-diqqatli va e'tiborli bo'ling. Opponentlaringizning hamma gaplarini diqqat bilan eshitib va yozma qayd qiling.

Parlament debatlari-maqsadli nutqiy faoliyat, unda o'z nuqtai nazarini himoya qilish, ko'tarilgan muammoning yechimini topish va xulosa chiqarishga qaratilgan, og'zaki ilmiy nutq tizimi hosil qilinadi. Shu va shu kabi rolli o'yinlar, seminar-treninglar o'quvchi (shaxs) ni mustaqil fikrlash, izlanish va topish, o'z fikrini to'g'ri xulosalashni o'rganish, uni ilmiy-ijodiy matnda ifodalash uchun zaruriy tayyorlov bosqichi vazifasini bajaradi. O'quvchi til va tafakkur o'rtasidagi bog'lanishlarni chuqur his etishni, o'z matnida maqol, hikmatli so'z, falsafaga oid sitatlar, fakt va dalillardan unumli foydalanishni o'rganadi.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni yozma ifodalashni faollashtirishning eng ishonchli vositasi muammoli-ijodiy o'quv topshiriqlari ekanligi, ular faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik kabi o'quvchi shaxsining muhim sifatlarini jamlovchi va bir yo'la harakatga keltiruvchi psixolingvistik xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun, o'quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishni ana shu bosqichli yo'naltiruvchi topshiriqlar asosida tashkil qilish matn yaratish amaliyotining yetakchi metodlaridan biri sifatida qaraldi.

O'quvchining mustaqil matn yaratish faoliyatiga quyidagicha ilmiy pedagogik tasniflar berildi:

Mustaqil matn yaratish jarayoni- belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir .

Mustaqil matn-individual bilim, idrok va tafakkur mahsuli, analiz va sintez hosilasi, o'quvchining nutqiy kashfiyotidir.

Matn – belgilangan maqsad va nutqiy imkoniyatlar asosida harakatlanayotgan xotira, idrok va tafakkur mahsulidir

Mustaqil yaratilgan matn – nutqiy malaka, intellectual qobiliyat, ma'naviyat va tafakkur uzviyligi hosilasi, ijodiy fikr mahsulining moddiylashuvidir.

Mustaqil matn yaratish faoliyati – o'quvchidagi kommunikativ savodxonlik, yozma fikr ifodalash qobiliyatining muayyan nutqiy- uslubiy me'yorlar asosida voqelanishi, in'ikosidir. U o'quvchining ona tili fani yuzasidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlashning ishonchli vositasi hisoblanadi.

Mustaqil matn – o'quvchining til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, fikr ifodalashda so'zga mas'ullik, so'z boyligi darajasini ko'rsatib turuvchi mezondir.

Mustaqil matn belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasida harakatlanuvchi idrok va tafakkur mahsulidir.

Shuningdek, mazkur lingvopsixologik topshiriqlar asosida jadallashtirilgan faoliyat orqali o'quvchilarda ta'limiy tafakkur va matn yaratish jarayonlarining faollashuvi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil matn yaratish va matn ustida ishlashdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad o‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining amaliy tatbiqini ta’minlash, individual tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, o‘quvchini mavzu yo‘nalishida, izchil, mantiqli, faol mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga tayyorlashdir. Shuningdek mazkur faoliyat o‘quvchilarni matn turlarin I farqlash, matndagi gaplarni tahlil va sintez qilish, imloviy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilish, matn qurilishi, mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish mashg‘ulotlari bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borilishi – o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy matn yaratishga tayyorlashning ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.T. “Yangi asr avlodi” 2006.